

## TA'LIM SIFATINI YAXSHILASHDA AMALIYOTCHI PSIXOLOGLAR TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH TIZIMINING O'RNI.

*Abdumannatova Nargisa Abdumajidovna*

*O'zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti o'qituvchisi mel.93.998-27-38*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini yaxshilashda amaliyotchi psixologlar tayyorlash va malakasini oshirish tizimining o'rni yoritib berilgan.

Respublikamizda barcha sohalarda bo'lgani kabi ta'lim sohasida ham sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlar negizida yosh avlodning ham ruhan, ham jismonan barkamol bo'lib ulg'ayishi ko'zda tutilmoqda. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'lim va tarbiya tizimini rivojlantirish haqida fikr yuritib, "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz",- deb takidlagan edi.

Bu bejiz emas. Chunki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlarning natijasi ko'p jihatdan ta'lim- tarbiya jarayoniga borib taqaladi. Boshqacha aytganda, ta'lim- tarbiyani yuqori pog'onaga ko'tarilishi islohotlarning pedagogik kafolatini ta'minlaydi. Bu borada ayniqsa, toboro jamiyat hayoti va taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etayotgan soha egalari amaliyotchi psixologlar faoliyatini rivojlantirish masalalariga to'xtalib o'tishimiz zarurdir.

Amaliyotchi psixologlarning maktablardagi faoliyatlari nafaqat yosh avlodning ruhiy-emotsional sohasini o'rganish balki, o'quvchilarni fanlarga bo'lgan qiziqishlarni oshirishda kerakli motivlarni berishlari va kasbga yo'naltirish jarayonida faol ishtirok etishlaridan iboratdir. Ammo, bugungi kunda sohadagi yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar ayrim amaliyotchi psixologlarning o'z vazifasiga bo'lgan sovuqqon munosabatlari ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini pasaytirmoqda. Ayniqsa bugungi kundagi yoshlarning psixologik xususiyatlari, psixologik holatlarini inobatga olsak, ularning ruhiy olamiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan mutaxassis psixologlarga talab oshib bormoqda.

Ta'lim sifatini oshirishning birqator omillari mavjud. Shulardan biri amaliyotchi psixolog kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimidir. "Ta'lim tog'risida"gi Qonunning 16- moddasida "Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kasb bilimlari va ko'nikmalarini chuqurlashtirish hamda yangilashni ta'minlaydi",- deb takidlangan.

Shuningdek kadrlar tayyorlash milliy dasturida "Amaliyotchi psixologlarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashni ko'zlovchi tizim vujudga keltiriladi. Pedagog kadrlarni ildam qayta tayyorlash va ularni malakasini

oshirish, raqobatbardosh darajada ularning kasb sifatini qo'llab-quvvatlash ta'minlanadi",- deyiladi.

Muhtaram Prezidentimizning "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora- tadbirlari to'g'risida"gi qarorida ham kadrlarni qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish tizimi faoliyatini yaxshilash maqsadida "Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha hududiy markazlar tuzulmasida metodik xizmat bo'limlari",- tashkil etilishi, "Pedagog kadrlarni tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishning ilg'or va shaffof tashkiliy- huquqiy mexanizmlarini joriy etish" nazarda tutilganligi bevosita ta'lim sifatini yaxshilash uchun qo'yilgan dadil qadamlardan biridir. Haqiqatdan ham qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslariga kelgan tinglovchilardan olingan test, yozma ish natijalari kishini qanoatlantirmaydi.

Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda boshqa omillar qatori psixologlarni malakasini oshirish tizimida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilar zimmasiga ham mas'uliyat yuklaydi. To'g'risini aytganda birinchidan, ushbu tizimda faoliyat ko'rsatayotgan barcha amaliyotchi psixologlarning shaxsiy, kasbiy, umummadaniy, maxsus kompetentlik darajalarini etarli deb bo'lmaydi. Psixologlarning o'z ustida ishlashi, ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanishlari pedagogika, psixologiya, o'qitish metodikalari sohasidagi so'ngi yangiliklardan barcha o'qituvchilarni etarli darajada xabardor deb bo'lmaydi.

Amaliyotchi psixologlar ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida viloyat, shaxar, tuman, xalq ta'limi bo'limi mutasaddilarining hamda o'qituvchi murabbiylarining joylarda ta'lim- tarbiya muammolariga oid ochiq muloqotlarni o'tkazib turish, to'planib qolgan muammolarni hamkorlikda bartaraf etish shubhasiz ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tajriba va kuzatishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, amaliyotchi psixologlarni faoliyatini rivojlantirish va ularning malakasini oshirish tizimida sohaga oid o'quv, uslubiy qo'llanmalarga va tavsiyalarga ehtiyoj mavjud.

Ta'limning sifati soha mutaxassislarini bilimi va mahoratiga bog'liq. Shu bois, faoliyat ko'rsatayotgan professor- o'qituvchilar va amaliyotchi psixologlarning kreativligini oshirish va yuqorida bildirilgan taklif va tavsiyalarning amaliyotga tadbiiq etilishi davlatimiz raxbari tamonidan qo'yilgan vazifalarning amalda bajarilishini ta'minlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora- tadbirlari to'g'risida"gi PF – 5538 sonli Farmoni, 2018- yil 5- sentyabr.

2. Butayeva U. A. TALABA PSIXOLOGIK KAMOLOTI MASALASI. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES. 2021. S-4-11

Klimov Ye.A. Put v professiyu.- L.: 1974.-143 s.

3. Umida Aliboyevna Butayeva [Mas'uliyat psixologik yetuklik mezonlari sifatida.](#) Sovremennoye obrazovaniye (Uzbekistan). 2017. S-52-58

4. Umida Aliboyevna Butayeva Shaxsning noaniqlik sharoitlarida qaror qabul qilish xususiyatlari. Central asian research journal for interdisciplinary studies (carjis). Volume 2 | issue 1 | 2022

avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori-T.: "Sharq" 1998.

5. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori-T.: "Sharq" 1998.

